



O'QUV TAJRIBA MAYDONIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEHNOLOGIYASI

Mamaxonova J.N.

Andijon davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi.

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, ekologik o'yinlar, estetik tarbiya, ekologik ong, vegetative organ, to'pgul, tugunak, didaktik o'yin.

Ключевые слова: образование, экологические игры, эстетическое воспитание, экологическое сознание, вегетативный орган, цветок, узелок, дидактическая игра.

Key words: education, environmental games, aesthetic education, environmental consciousness, vegetative organ, flower, knot, didactic game.

Kirish. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsda amaliy mashg'ulotlarni o'rgatishda o'quv tajriba maydonchadagi ishlarni ahamiyati juda muhim ro'l o'ynaydi o'yinning o'tkazilishi metodlari va o'quv jarayoni bilan o'quvchi bilimining boshqa turlaridan farq qiladigan o'quv maydonchadagi bajariladigan ishlar o'quvchilarga mashg'ulot davomida fanlararo ekologik tarbiyani oshirish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, ekologik tarbiyani umumkasbiy fanlar yuzasidan o'rganish hamda amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish atrof –tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini zamonaviy yondoshuvlar asosida tashkil qilish usullarini nazariy taxlil qilish jonli va jonsiz tabiat to'grisidagi mavzular bilan tanishishda fanlararo bog'lanishni bosqichlararo amalga oshirishda, amaliyotning asosiy turlarini moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisolanadi tabiiy amaliyot vazifalarni bajaradi.

Dastlabki bilim jarayonini tashkil qilish shaxs (o'quvchi) vosita, ta'lim (tarbiya) maqsadlari, tarbiyaning mazmini, tarbiyaviy (ahloq –odob, o'quvchi o'zini dars mashg'ulotlarda to'g'ri tuta bilishi) jarayon, tashkil etish shakllari (o'quv tajriba maydonchadagi ishlarni, o'yinlarni, ekuskursiyani to'g'ri tashkil etish... v.k.) pedagogik usullar yoki zamonaviy yondashuvlar asosidagi texnologiyalar, o'qituvchi faoliyati o'quv jarayonida bolada yuzaga kelgan hayajonli, o'z fikrlarini bayon qila olmaslik, nutqini to'g'ri aytib bera olmaslik, psixosotsial



, ikki kishi savol-javob (dialog) da qatnasha olmaslik kabi kelib chiqadigan muammolarni va uni echishni to'g'ri tashkil qila bilish, ustuvor texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarni echish hamda echimini topishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir.

Birinchiidan: pedagogik texnologiyalarda shahsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchiidan: pedagogik texnologiyalar o'quv – tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchiidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchiidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – pedagoglarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erisha olishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq.

Material va metodlar. Maktab yoshdagi bolarga bilim berishda faoliyat yuritayotgan pedagog o'qituvchilarning yillik o'quv rejasida atrof-tabiatni asrab –avaylash va tabiat resurslaridan (suv, tuproq, o'simlik va hayvonlar) me'yorida va bu resurslar hozirgi kunda global ekanligini, undan oqilona foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etib bormoqdaligi asosiy xom-ashyo mana shu resurslardan olinishi, hamda barcha insonlarning oziq –ovqati ekanligini pedagog o'z maqsadining amalga oshira bilishi va kafolatlangan natijaga etishishi o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi bajargan ishlarida, ular oldinga qo'ygan maqsadida, tanlangan tarbiyaviy yo'nalishidagi (tabiiy boyliklarni tejash, hazonlarga o't qo'ymaslik, suvni isrof qilmaslik) kabi “Atrofga zarar etkazmaylik” kabi turli mavzudagi o'tilagan dars texnologiyasiga bog'liq [3. B. 126].

Pedagogning o'z maqsad va natijaga erishuvida u qanday texnologiyalarni tanlashlari hamda ularning ixtiyorida qanday vositalar mavjudligi, chunki har



ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq bir natijaga erishuviga bog'liq. Shu bois pedagoglarning bilim berish darajasi, guruhlarda ish iolib borish xarakteri, (har bir o'quvchining xarakteriga qarab) jihozlarning sifat darajasi, ishlatiladigan AKT (axborot kommunikatsiya texnologiya) lari vositalaridan slaydlar, sxemali chizmalar va boshqa qiziqarli mahalliy manbaalar to'g'ri tanlanadi. Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda mavzuning o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, pedagoglarning imkoniyati, ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishning hisobga olishi lozim. Shundagina kafolatlangan natijaga erishiladi.

Natijalar va ularning tahlili. Maktab yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarga ta'lim berayotgan va shu yo'nalishida ish olib borayotgan pedagoglar yillik o'quv rejasida "Boshlang'ich sinf(1-2-3-4-sinf) o'quvchilarini ekologik bilimini shakllantirish bo'yicha "Biz tabiatni asraylik" Tabiiy boyliklarimiz", "Qizil kitob", Ona sayora", "Er osti boyliklarimiz", "Suv" "Daraxtlar" va.xokozo... kabi nomli bir qancha mavzular bo'lib, bunda asosan ekologik ta'limga yo'naltirilgan hamda jonli va jonsiz tabioat inomlari haqida ma'lumotlar beriladi. Mavzularni o'tish mobaynida "O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi", "Qo'riqxonalar " muhofazaga olingan o'simlik va hayvonlar, hududlar o'quvchilarga ekologiya, insonning tabiatga bo'lgan qarashi undagi barcha tog', ormon, daryo, ko'llar, osmon, havo, suv ,tuproqqa bo'lgan o'zaro munosabati haqida ma'lumotlar berish, tabiat va insonning abadiy bir-biriga bog'liqligi haqida ularning bilim olishi va olgan builimlarini tassavur qilishlari, ko'nikmalarini dars mashg'ulotlarida shakllantirish masalalari tashkil etgan amaliy, labarotoriya, sinf va sinfdan tashqari ishlar ,ekuskursiyalar, o'quv tajriba maydonidagi bajariladigan ishlar, bolalarda maktabga kelish va ketishda, ko'cha-ko'ya atrof-muhitga qanday zarar yetkazilayotganligini ko'rganliklari haqida so'zlab berish so'ralishi, ya'ni bolalarni gapirtirish ham pedagogik texnologoyalar sirasiga kiradi. Bu usul bolalarda kuzatuvchanlikni va ekologik tarbiva olgan yoki olmagan odamlar orasidagi farqni ajratish tuyg'ularini o'stiradi [4. B. 576].

"Daraxtlar nomi va bargini toping?"

O'yin qoidasi: O'qituvchi bolalarga diqqat bilan qarab, rasmda ko'rib turgan daraxtlarni nomlarini aytishlarini so'raydi. O'qituvchi qaysi belgilari orqali daraxtlarni nomlarini topganlari haqida gapirib berishlari lozim. Har bir topilgan daraxtga uning barglarini topib daraxtga ilib qo'yish taklif etiladi.

Didaktik o'yin ma'lum mazmunga ega bo'lib o'quvchini tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalarni bilish vazifalari (masalan, o'simlik gulining rangi, tuproqning holatini, daraxtlarni nomini) kabi tabiat xodisalarini va ularni qanay sodir bo'lish jarayonini aniqlash, turli buyumlarni tasnif qilish va guruhlash o'yini bilan topish, musobaqalashish(qo'shib olib boriladi), didaktik o'yin ta'limning



yomon ahvolda ekanligi ,yani ularning tabiatdan ajralib qolganligi bunga sabab bo'lmoqda.[8.122.b]

Xulosa. Amaliy mashg'ulotlardan hamda ma'lumotlarga asoslanib kelib chiqqan holda shuni aytish kerakki boshlang'ish sinf o'quvchilariga ko'proq dars mashg'ulotlarini ko'proq pedagogik texnologiyalar asosida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishning metodik usullarini tabiat haqidagi mavzularning nazariy va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish texnologiyalari etarli emas. Bunday holatda o'qituvchi o'z ustida ko'proq ishlashi dars mashg'ulotlarni ekologiyaga oid o'yinlardan shu bilan bir qatorda O'zbekiston respublikasi "Qizil kitobidan" hamda tabiat haqidagi ma'lumotlar ko'proq keltirilgan ma'lumotlardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Boltayev O. Pardaboey Sh. O'quvchilarda ekologik mas'uliyatni va madaniyatni shakllantirish usullari. Вестник магистратуры. 2021. № 2-1 (113). – Б.24–25.
2. A.S.Makarenko "Ўз тажрибаларимдан Сухомлинский хулосалар". Toshkent.2003.143.b .
3. I.Xolliyev.A.Ikromov.Ekologiya.Toshkent.2001.yil."Mehnat nashriyoti" Ekologiya.
4. Hamro.Rahmatov.Ihtiyor Axrorov.2020.yil.Boshlang'ich sinf o'quvchilarda didaktik o'yinlar. Pedagogik mahorat . № 05-072.153-bet.
5. M.I.Nuriddinova. 2005.yil."Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent.Cho'lpon nomidagi nashriyot uyi.240 bet.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchi yoshidagi bolalarga atrof tabiatni muhofaza qilish, ekologik bilim va madaniyatni tajriba maydonchadagi bajariladigan ishlarda hamda u yerdagi amaliy mashg'ulotlarda shakllantirish,tezkor didaktik qobiliyatlarini ,axloqiy-estetik sifatlarini, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini, tashkil qilishning o'ziga xosligi amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье учит детей начальных классов охране окружающей среды, экологическим знаниям о нанесении вреда растениям и животным, труду, нравственному воспитанию, формированию у них знаний о природе в процессе обучения и организации учебной деятельности, формированию художественно-творческих способностей, развитию детского творчества. понимания живой и неживой природы, формирования нравственноэстетических качеств, своеобразия организации учебно-воспитательной деятельности, развития у детей интереса к природе и творческих способностей. Даны методические рекомендации по правильной организации развития и практических занятий.

SUMMARY

The article teaches primary school children environmental protection, environmental knowledge about not harming plants and animals, labor, moral education, the formation of their knowledge about nature in the process of learning and organizing educational activities, the formation of artistic and creative abilities, and the development of children's creativity. understanding of living and inanimate nature, the formation of moral and aesthetic qualities, the uniqueness of the organization of educational activities, the development of children's interest in nature and creative abilities. Methodological recommendations are given for the proper organization of development and practical training.